O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki tomonidan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

№ 22/6 « 13 » yanvar 2026 yil

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
Raisining birinchi o‘rinbosari

N.N. Saydullayev

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING USTAVIGA KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR

“O‘zmilliybank” AJ
Kuzatuv kengashining
26.12.2025 yildagi 61-sonli
Bayoni bilan
“TASDIQLANGAN”

“O‘zmilliybank” AJ Kuzatuv kengashi raisi,
O‘zbekiston Respublikasi
Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri

L.SH.Kudratov

Toshkent – 2026 yil.

"O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar matni:

4.2. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4.2. Bankning ustav kapital miqdori 17 767 115 170 000,00 (o'n yetti trillion yetti yuz oltmish yetti milliard bir yuz o'n besh million bir yuz yetmish ming) so'mni tashkil qiladi va har birining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 17 767 115 170 (o'n yetti milliard yetti yuz oltmish yetti million bir yuz o'n besh ming bir yuz yetmish) dona egasining nomi yozilgan oddiy joylashtirilgan aksiyalardan iborat.

4.3. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4.3. Bankning e'lon qilingan (qo'shimcha) chiqarilishi mumkin bo'lgan aksiyalarning eng ko'p miqdori 7 413 152 559 (yetti milliard to'rt yuz o'n uch million bir yuz ellik ikki ming besh yuz ellik to'qqiz) dona nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'mlik oddiy aksiyalar tashkil qiladi.

Boshqaruv raisi **A.Mirsoatov**

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki tomonidan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

№ 22/5 « 14 » Oktabr 2025 yil

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
Raisining birinchi o‘rinbosari

_____ N.N. Saydullayev

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING USTAVIGA KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR

“O‘zmilliybank” AJ
Kuzatuv kengashining
15.09.2025 yildagi 49-sonli
Bayoni bilan
“TASDIQLANGAN”

“O‘zmilliybank” AJ Kuzatuv kengashi raisi,
O‘zbekiston Respublikasi
Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri

_____ L.SH.Kudratov

Toshkent – 2025 yil.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati ustaviga kiritilgan o‘zgartirishlar matni:

4.2. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4.2. Bankning ustav kapital miqdori 16 697 181 805 000,00 (o‘n olti trillion olti yuz to‘qson yetti milliard bir yuz sakson bir million sakkiz yuz besh ming) so‘mni tashkil qiladi va har birining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘m bo‘lgan 16 697 181 805 (o‘n olti milliard olti yuz to‘qson yetti million bir yuz sakson bir ming sakkiz yuz besh) dona egasining nomi yozilgan oddiy joylashtirilgan aksiyalardan iborat.

4.3. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4.3. Bankning e’lon qilingan (qo‘shimcha) chiqarilishi mumkin bo‘lgan aksiyalarning eng ko‘p miqdori 8 483 085 924 (sakkiz milliard to‘rt yuz sakson uch million sakson besh ming to‘qqiz yuz yigirma to‘rt) dona nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘mlik oddiy aksiyalar tashkil qiladi.

Boshqaruv raisi **A.Mirsoatov**

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki tomonidan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

№ 22/4 « 1 » avgust 2025 yil

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
Raisining birinchi o‘rinbosari

N.N. Saydullayev

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING USTAVIGA KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR

“O‘zmilliybank” AJ
Aksiyadorlari navbatdan tashqari
umumiy yig‘ilishining
23.06.2025 yildagi 32-sonli
Bayoni bilan
“TASDIQLANGAN”

“O‘zmilliybank” AJ Kuzatuv kengashi raisi,
O‘zbekiston Respublikasi
Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri

L.SH.Kudratov

Toshkent – 2025 yil.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati ustaviga kiritilgan o‘zgartirishlar matni:

4.2. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4.2. Bankning ustav kapital miqdori 15 960 942 628 000 (o‘n besh trillion to‘qqiz yuz oltmish milliard to‘qqiz yuz qirq ikki million olti yuz yigirma sakkiz ming) so‘mni tashkil qiladi va har birining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘m bo‘lgan 15 960 942 628 (o‘n besh milliard to‘qqiz yuz oltmish million to‘qqiz yuz qirq ikki ming olti yuz yigirma sakkiz) dona egasining nomi yozilgan oddiy joylashtirilgan aksiyalardan iborat.

Boshqaruv raisi **A.Mirsoatov**

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki tomonidan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

№22/3 « 18 » aprel 2025 yil

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
Raisining birinchi o‘rinbosari

_____ N.N. Saydullayev

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING USTAVIGA KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR

“O‘zmilliybank” AJ
Kuzatuv kengashining
26.03.2025 yildagi 18-sonli
Bayoni bilan
“TASDIQLANGAN”

“O‘zmilliybank” AJ Kuzatuv kengashi raisi,
O‘zbekiston Respublikasi
Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri

_____ I.SH.Kudratov

Toshkent – 2025 yil.

"O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar matni:

4.2. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4.2. Bankning ustav kapital miqdori 16 256 753 164 000 (o'n olti trillion ikki yuz ellik olti milliard yetti yuz ellik uch million bir yuz oltmish to'rt ming) so'mni tashkil qiladi va har birining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 16 256 753 164 (o'n olti milliard ikki yuz ellik olti million yetti yuz ellik uch ming bir yuz oltmish to'rt) dona egasining nomi yozilgan oddiy joylashtirilgan aksiyalardan iborat.

4.3. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4.3. Bankning e'lon qilingan (qo'shimcha) chiqarilishi mumkin bo'lgan aksiyalarning eng ko'p miqdori 9 219 325 101 (to'qqiz milliard ikki yuz o'n to'qqiz million uch yuz yigirma besh ming bir yuz bir) dona nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'mlik oddiy aksiyalar tashkil qiladi.

Boshqaruv raisi **A.Mirsoatov**

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki tomonidan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

№ 22/2 « 24 » dekabr 2024 yil

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
Raisining birinchi o‘rinbosari

_____ N.N. Saydullayev

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING USTAVIGA KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR

“O‘zmilliybank” AJ
Aksiyadorlarining
14.11.2024 yildagi navbatdan tashqari
umumiy yig‘ilishining 26-sonli
Bayoni bilan
“TASDIQLANGAN”

“O‘zmilliybank” AJ aksiyadorlarining
navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi raisi,
O‘zbekiston Respublikasi
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi yuridik
xizmati boshlig‘i

_____ M.J.Norgitov

Toshkent – 2024 yil.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati ustaviga kiritilgan o‘zgartirishlar matni:

10.4.4. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

10.4.4. Bank Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash va ularni vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, Bank Kuzatuv kengashiga to‘lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash.

11.4.25. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

11.4.25. Bankning ijro organiniga (boshqaruvi) to‘lanadigan haqning eng yuqori miqdorini va samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash. Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, shuningdek ularga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha masalalarni ma’qullash va aksiyadorlar tasdig‘iga kiritish.

11.8. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

11.8. Bank Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan, ushbu Kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan saylanadi. Bankning Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan qayta saylanishga haqli. Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolari bilan tuziladigan fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar Kuzatuv kengashi raisi tomonidan imzolanadi.

Boshqaruv raisi **A.Mirsoatov**

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki tomonidan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

№ 22/1 « 20 » sentabr 2024 yil

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
Raisining birinchi o‘rinbosari

N.N. Saydullayev

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING USTAVIGA KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR

“O‘zmilliybank” AJ
Kuzatuv kengashining
20.08.2024 yildagi 61-sonli
Bayoni bilan
“TASDIQLANGAN”

“O‘zmilliybank” AJ Kuzatuv kengashi raisi,
O‘zbekiston Respublikasi
Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri

L.SH.Kudratov

Toshkent – 2024 yil.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati ustaviga kiritilgan o‘zgartirishlar matni:

4.2. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4.2. Bankning ustav kapital miqdori 16 250 670 312 000 (o‘n olti trillion ikki yuz ellik milliard olti yuz yetmish million uch yuz o‘n ikki ming) so‘mni tashkil qiladi va har birining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘m bo‘lgan 16 250 670 312 (o‘n olti milliard ikki yuz ellik million olti yuz yetmish ming uch yuz o‘n ikki) dona egasining nomi yozilgan oddiy joylashtirilgan aksiyalardan iborat.

4.3. band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

4.3. Bankning e’lon qilingan (qo‘shimcha) chiqarilishi mumkin bo‘lgan aksiyalarning eng ko‘p miqdori 9 225 407 953 (to‘qqiz milliard ikki yuz yigirma besh million to‘rt yuz yetti ming to‘qqiz yuz ellik uch) dona nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘mlik oddiy aksiyalar tashkil qiladi.

Boshqaruv raisi **A.Mirsoatov**

“TASDIQLANGAN”
“O‘zmilliybank” aksiyadorlik
jamiyatining
11.03.2024 yildagi 23-sonli
ta’sischilar yig‘ilishining
bayonnomasi bilan

Yig‘ilish raisi,
O‘zbekiston Respublikasi
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi
yuridik xizmati boshlig‘i

_____ M.J.Norgitov

“RO‘YXATGA OLINGAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
№ 22
«9» aprel 2024-yil

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki
Raisi birinchi o‘rinbosari

_____ N.N.Saydullayev

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING USTAVI

(yangi tahrirda)

Toshkent – 2024-yil.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati, (keyingi o‘rinlarda - “Bank”), bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to‘lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag‘larini jalb etish, kreditlar berishni amalga oshirish, banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti.

1.2. Bank O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi 1991-yil 7-sentabrdagi PF-244-sonli Farmoniga muvofiq tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” unitar korxonasi aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 30-noyabrdagi PQ-4540-sonli qaroriga muvofiq Bank aksiyadorlik jamiyatiga o‘zgartirish yo‘li bilan qayta tashkil etildi.

Bank “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” unitar korxonasi barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan, xalqaro shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi. Mazkur Ustav talablari korrupsiyaviy holatlar hamda manfaatlar to‘qnashuvlarini sodir etilishini taqiqlaydi.

1.3. Bank o‘z faoliyatini aksiyadorlik jamiyati shaklida amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasining bank tizimiga kiradi va o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda O‘zbekiston Respublikasining boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek mazkur ustavga muvofiq olib boradi.

1.4. Bankning firma nomi:

o‘zbek tilida (kiril alifbosida): to‘liq nomi - “Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият миллий банки” акциядорлик жамияти, қисқартирилган номи – Ўзмиллийбанк

o‘zbek tilida (lotin alifbosida): to‘liq nomi - “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati, qisqartirilgan nomi - O‘zmilliybank ;

rus tilida: to‘liq nomi - акционерное общество «Национальный банк внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан», qisqartirilgan nomi – Узнацбанк;

ingliz tilida: to‘liq nomi - Joint-stock company «National Bank for Foreign Economic Activity of the Republic of Uzbekistan», qisqartirilgan nomi – NBU.

1.5. Bankning joylashgan joyi (pochta manzili): 100084, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko‘chasi, 101-uy

Bankning elektron pochta manzili: info@nbu.uz va webmaster@nbu.uz.

Bankning rasmiy veb-sayti: https://nbu.uz

1.6. Bank yuridik shaxs bo‘lib, o‘z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan, o‘zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, o‘z zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

1.7. Bank davlat tilida to‘liq firma nomi yozilgan va o‘zining emblema (logotipi) tasvirlangan yumaloq muhriga (muhrda qo‘shimcha ravishda Bankning firma nomi boshqa

istalgan tilda ko‘rsatilishi mumkin), shuningdek o‘z nomi yozilgan shtampi va blankalariga ega bo‘lishiga haqlidir. Bank o‘zining shaxsiy emblemasi, shuningdek boshqa vizual identifikatsiya belgi-alomatlariga ega bo‘lishga haqlidir.

1.8. Bank o‘z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi. Bank moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilishda mustaqildir.

1.9. Bank o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar hisoblanadi.

1.10. Aksiyadorlar Bankning majburiyatlari yuzasidan javobgar hisoblanmaydi va Bankning faoliyati bilan bog‘liq zararlar yuzasidan o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida tavakkalchilik xavflarini o‘z zimmasiga oladi.

Aksiyalarning haqini to‘liq to‘lamagan aksiyadorlar Bankning majburiyatlari yuzasidan o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladi.

Bank o‘z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar hisoblanmaydi.

Bank davlatning majburiyatlari bo‘yicha, davlat esa bank majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi, bundan bank yoki davlatning o‘zi bunday majburiyatlarni zimmasiga olish hollari mustasno.

1.11. Bankning mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lib, Bank aksiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar, asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar, ko‘char va ko‘chmas mulklar, qimmatli qog‘ozlar, olingan daromad, qonun hujjatlari bilan ta’qiqlanmagan boshqa asoslarda olingan boshqa mol-mulklardan tashkil topadi.

1.12. Bank faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi va o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o‘rinlarda “Markaziy bank”) tomonidan beriladigan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiradi.

1.13. Bankning ustavi, unga kiritiladigan o‘zgartish va qo‘shimchalar Markaziy bankda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. Bankning ichki qoidalari, shuningdek ularga kiritiladigan keyingi o‘zgartish hamda qo‘shimchalar banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilishi hamda Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

II. BANK FAOLIYATINING PREDMETI (ASOSIY YO‘NALISHLARI) VA MAQSADI. BANK OPERATSIYALARI.

2.1. Bank faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

xorijiy kredit liniyalari, xalqaro kapital bozoridagi resurslar, xorijiy investorlar mablag‘larini jalb qilish orqali iqtisodiyotning ustuvor sektorlarida yirik investitsion loyihalarni faol ravishda kreditlash;

xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligini oshirish uchun innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga bank xizmatlarini, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat masalalarida moliyaviy maslahatlar berish va axborot ko‘magini ko‘rsatish;

aholiga chakana bank xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tehnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish;

birinchi navbatda milliy valyutadagi uzoq muddatli mablag‘larni safarbar qilish hisobiga bank faoliyatini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish;

savdo-eksport moliyalashtirish biznesi mahsulotlarini rivojlantirish va uning geografiyasini kengaytirish, shuningdek, respublikaning eksport salohiyatini rivojlantirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash, eksport qiluvchilarga konsalting xizmatlarini taqdim etish;

korporativ mijozlarga investitsion banking, jumladan ichki va tashqi bozorlarda qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish xizmatlarini ko‘rsatish;

bankning rivojlantirish strategiyasida ko‘rsatilgan maqsad, vazifalarni va tadbirlarni amalga oshirish.

2.2. Bank o‘z faoliyatida kredit, moliya, hisob-kitob, kassa va boshqa bank xizmatlarini milliy va xorijiy valyutada ko‘rsatadi, shu jumladan:

jismoniy va yuridik shaxslardan, shu jumladan xorijiy shaxslardan milliy va xorijiy valyutada hisob-varaqalarga va omonatlarga mablag‘lar qabul qiladi, shuningdek, banklar va boshqa kredit tashkilotlarning hisob-varaqalari va omonatlari, qimmatli qog‘ozlari va boshqa moliyaviy vositalariga mablag‘larni joylashtiradi;

xalqaro bank amaliyotida qo‘llaniladigan shakllarda xorijiy banklar va boshqa tashkilotlarning kredit va qarzlarini jalb etadi;

to‘lovlarni, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan, amalga oshiradi, kassa va inkassatsiya xizmatlarini amalga oshiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochadi hamda yuritadi;

jismoniy va yuridik shaxslarga kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan o‘z nomidan o‘zining mablag‘lari hamda jalb qilingan mablag‘lar hisobidan beradi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida va chet elda xorijiy valyutani sotish va sotib olish (banknotlar, g‘azna qog‘ozlari, tangalar), to‘lov hujjatlarini (cheklar, veksellar, akkreditivlar va h.z.) xalqaro bank amaliyotiga muvofiq xorijiy valyutadagi va boshqa valyuta qiymatlarida, shuningdek naqd va naqdsiz shakllarda xorijiy va milliy valyutada boshqa operatsiyalarni amalga oshiradi;

jismoniy va yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha mol-mulkni ishonchli boshqaradi, mijozlar nomidan aktivlar portfelini boshqaradi;

uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlarini bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar beradi va boshqa majburiyatlarni qabul qiladi;

uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini oladi (faktoring);

qimmatli qog‘ozlar chiqaradi, xarid qiladi, sotadi, ularning hisobini yuritadi va saqlaydi, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga asosan qimmatli qog‘ozlarni boshqaradi va ular bilan bog‘liq boshqa operatsiyalarni bajaradi;

affinlangan qimmatbaho metallar sotib oladi va sotadi, shu jumladan metallarni mas’ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo‘lmagan) hisobvaraqlarini yuritadi, ichki va xalqaro bozorlarda qimmatbaho metallar bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshiradi;

hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshiradi;

hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni hamda terminalar, bankomatlar va boshqa mulkni ijaraga beradi, lizing

operatsiyalarini amalga oshiradi;

bank kartalarini beradi va to‘lovlarni amalga oshiradi, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko‘rsatadi;

zamonaviy bank mahsulotlari va tehnologiyalarini joriy etadi, shuningdek masofadan turib va kontaktsiz bank hisobraqamlariga xizmat ko‘rsatadi;

moliyaviy operatsiyalar bilan bog‘liq maslahat xizmatlarini ko‘rsatadi;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi.

2.3. Bank qonun hujjatlariga belgilangan tartibda qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshira oladi.

2.4. Bank bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug‘urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli emas.

III. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. O‘z faoliyatini amalga oshirish va oldida turgan vazifalarni bajarish uchun Bank quyidagi huquqlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq, iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

bank-moliya xizmatlari bozorida rivojlantirish strategiyasi va dasturlarni ishlab chiqadi, shuningdek kredit, investitsiya, dividendlar, emissiya va boshqa siyosatlarni mustaqil ravishda belgilaydi va amalga oshiradi;

shartnomalar asosida aktiv va passiv operatsiyalar uchun foiz stavkalarini belgilaydi, shuningdek individual tariflarni belgilash masalalarida mijozlarga moslashuvchan holda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan xaq miqdorini belgilaydi;

o‘rnatilgan tartibda vakolatxonalar, filiallar, xorijiy mamlakatlarda bankning sho’balarini tashkil etadi;

homiylik va xayriya faoliyatini amalga oshiradi;

mustaqil ravishda o‘zining xo‘jalik, moliyaviy va tijorat faoliyatini rejalashtiradi va tashkil etadi, mustaqil ravishda Bank xodimlarining ish tartibi, ish haqi miqdori va samaradorlik ko‘rsatkichi asosida ish haqini to‘lash mexanizmini belgilaydi;

o‘z moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qonun hujjatlarida belgilangan boshqa harakatlar va operatsiyalarni amalga oshirish;

o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan loyihalarni ekologik va ijtimoiy ekspertizadan o‘tkazadi;

Qonunchilikka muvofiq Bank boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

3.2. Bankning majburiyatlari:

Markaziy bank tomonidan Markaziy bankda mablag‘larni rezervlash talablari va o‘rnatilgan iqtisodiy normativlarga rioya etish;

Markaziy bank tomonidan belgilangan prudensial normativlarga rioya etish;

o‘z kapitali va likvidli resurslarining yetarli miqdorini ta’minlash, yo‘qotishlar xavfini kamaytirish maqsadida aktivlarni diversifikatsiya qilish;

qonun hujjatlariga asosan kredit, investitsiya, dividend, emissiya va boshqa siyosatlarni, shuningdek Bank operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq ichki normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

qonunchilikka muvofiq buxgalteriya hisobi va hisoboti talablariga rioya qilish;

mijozlarning hisobvaraqlaridagi mablag‘larni butligini ta’minlash;

o‘z mijozlari va korrespondentlari bilan bog‘liq operatsiyalar, hisobvaraqlar hamda ularning jamg‘armalariga doir ma’lumotlarni, shuningdek bank sirini tashkil etuvchi boshqa ma’lumotlarni sir saqlash;

Markaziy bank tomonidan ichki nazorat va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga qo‘yiladigan talablarga rioya qilish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq Bankka nisbatan o‘rnatilgan boshqa talablarni bajarish.

IV. BANK USTAV KAPITALINING MIQDORI, UNI KO‘PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI

4.1. Bankning ustav kapitali aksiyadorlar tomonidan sotib olingan Bank aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalaniladi. Bankning ustav kapitali Bank kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan jamiyat mol-mulkining eng kam miqdorini belgilaydi.

4.2. Bankning ustav kapital miqdori 15 476 078 265 000 (o‘n besh trillion to‘rt yuz yetmish olti milliard yetmish sakkiz million ikki yuz oltmish besh ming) so‘mni tashkil qiladi va har birining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘m bo‘lgan 15 476 078 265 (o‘n besh milliard to‘rt yuz yetmish olti million yetmish sakkiz ming ikki yuz oltmish besh) dona egasining nomi yozilgan oddiy joylashtirilgan aksiyalardan iborat.

4.3. Bankning e’lon qilingan (qo‘shimcha) chiqarilishi mu‘mkin bo‘lgan aksiyalarning eng ko‘p miqdori 10 000 000 000 (o‘n milliard) dona nominal qiymati 1 000 (ming) so‘mlik oddiy aksiyalar tashkil qiladi.

4.4. Bankning ustav kapitali aksiyalar nominal qiymatini oshirish yoki qo‘shimcha aksiyalarini joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin.

4.5. Bankning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Bank tomonidan sotib olish yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin.

4.6. Bankning ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini sotib olish va bekor qilish yo‘li bilan kamaytirishga yo‘l qo‘yiladi.

4.7. Bank ustav kapitalini kamaytirilishi natijasida uning miqdori banklar ustav kapitalining qonunchilikda belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, Bank ustav kapitali miqdorini kamaytirishga haqli emas.

4.8. Qonunchilikda aniq nazarda tutilgan hollarda, Bank ustav kapitalining kamayganligi to‘g‘risidagi ma’lumotni e’lon qilishi majbur.

V. BANK AKSIYALARINING NOMINAL QIYMATI. BANK AKSIYALARINI, BOSHQA QIMMATLI QOG‘OZLARINI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI

5.1. Bankning aksiyalari egasining nomi ko‘rsatilgan oddiy emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar. Bank faqat oddiy aksiyalarni chiqarishi mumkin.

5.2. Bank aksiyalarining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘m.

5.3. Bank chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo‘lishi lozim.

5.4. Aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish usullari qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror bilan belgilanadi.

5.5. Bankning qo‘shimcha aksiyalariga haq to‘lanishi ushbu aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan joylashtirish muddati doirasida to‘lanishi lozim. Bank aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlariga haq to‘lash faqat pul mablag‘lari bilan amalga oshiriladi. Aksiyaning qiymati to‘liq to‘lanmagan va uning yangi egasi aksiyadorlar reyestrida ro‘yxatga olinmagunga qadar, aksiya ovoz huquqini bermaydi.

5.6. Aksiyadorlar o‘zlarining ustuvor huquqidan foydalanmagan hollarda, Bank o‘z aksiyadorlari tomonidan sotilayotgan aksiyalarini sotib olish bo‘yicha ustuvor huquqqa ega.

5.7. Bank korporativ obligatsiyalarni (shuningdek yevroobligatsiyalarni) va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirishga haqli. Korporativ obligatsiyalariga va boshqa qimmatli qog‘ozlarga haq to‘lash faqat pul mablag‘lari bilan amalga oshiriladi. Bank tomonidan korporativ obligatsiyalarni (shuningdek yevroobligatsiyalarni) va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish Bankning Kuzatuv kengashi qaroriga asosan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

VI. BANK AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Aksiyadorlar quyidagi huquqlarga ega:

Bank aksiyadorlarining reyestriga kiritilish;

depo hisobvarag‘idan o‘ziga taalluqli ko‘chirma olish;

Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

Bank tugatilgan taqdirda o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarida ovoz berish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;

boshqa aksiyadorlar tomonidan sotilgan aksiyalarni narxi va shartlari bo‘yicha uchinchi tomonga har biriga tegishli bo‘lgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda sotib olishda imtiyozli huquqlardan foydalanishi;

Bankning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;

o‘ziga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa

nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish huquqiga ega.

Bank aksiyalari beradigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o‘z vakiliga (vakillariga) berish huquqiga ega.

Aksiyadorlar qonun hujjatlariga va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

6.2. Har bir oddiy aksiya aksiyadorga bir xil hajmdagi huquqlarni beradi. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

6.3. Bank aksiyadorlarining majburiyatlari:

mazkur ustavda ko‘rsatilgan tartibda, miqdorda va usullarda aksiyalarning narxini to‘lash;

mazkur ustav va qonunchilik talablariga rioya qilish;

qonunchilik va mazkur ustavda belgilangan tartibda Bank boshqaruvi organi qarorlariga amal qilish;

bank yoki tijorat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni, shuningdek boshqa bank maxfiy hujjatlarining (ma’lumotlarining) tarkibini oshkor qilmaslik;

banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini ta’minlash maqsadida Bank tomonidan so‘ralgan ma’lumotlarni taqdim etish.

Aksiyadorlar qonun hujjatlariga va mazkur ustavga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham oladilar.

VII. BANK FOYDASINI TAQSIMLASH, DIVIDENDLARNI TO‘LASH VA ZARARLARNI QOPLASH TARTIBI

7.1. Bankning foydasi Bank faoliyatining barcha turlari bo‘yicha olingan daromadlaridan - operatsion xarajatlar, moddiy va shunga o‘xshash xarajatlar, shuningdek aktivlar bo‘yicha yaratilgan zaxiralarini chegirib tashlash yo‘li bilan shakllantiriladi.

7.2. Bank o‘z faoliyatidan cheksiz foyda olishga haqlidir.

7.3. Tegishli soliqlar, budjetga va budjetdan tashqari jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar to‘langandan keyin qolgan foyda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida belgilangan tartibda ishlatiladi.

7.4. Dividendalarni to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risidagi qaror Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasiga asosan Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi tomonidan moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda qabul qilinadi.

7.5. Dividend Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan pul mablag‘lari yoki qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa to‘lov vositasi yoki qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida to‘lanishi mumkin. Dividendlarni to‘lash muddati va tartibi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori bilan belgilanadi. Dividendlarni to‘lash muddati bunday qaror qabul qilingan kundan boshlab 60 (oltmish) kundan kechiktirilishi mumkin emas.

7.6. Dividendlarni to‘lash qonunchilikda ta’qiqlangan hollarda, Bank tomonidan aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lash va to‘lash to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishi

ta’qiqlanadi.

7.7. Boshqa mablag‘lar bo‘lmagan taqdirda, Bank zararlari qonunchilikda belgilangan tartibda zaxira fondi hisobidan qoplanadi.

VIII. BANKNING O‘Z MABLAG‘LARI VA KREDIT RESURSLARI

8.1. Bankning o‘z mablag‘larini quyidagilar tashkil etadi:

ustav kapitali;

qo‘shilgan kapital;

zaxira fondlari;

taqsimlanmagan foyda;

Bank faoliyati uchun zarur bo‘lgan, boshqa daromadlar hisobidan tashkil etiladigan va amaldagi qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa fondlar;

qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa mablag‘lar.

8.2. Bankda Ustav kapitalining 15 (o‘n besh) foizidan kam bo‘lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi.

Bankning zaxira fondi ushbu bandda belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yillik sof foydadan kamida 5 (besh) foiz miqdorida majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi.

Zaxira fondi to‘laligicha yoki qisman sarflanib bo‘lgan hollarda, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

8.3. Bankning sof aktivlari qiymati buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida aniqlanadi.

8.4. Bankning kredit resurslari quyidagilar hisobiga shakllanadi:

ustav kapitali, zaxira va boshqa fondlarning mablag‘lari;

mijozlarning Bankdagi hisobraqamlaridagi mablag‘lari, shu jumladan muddatli omonat va depozitlari;

boshqa banklardan, shu jumladan xorijiy banklar, xalqaro moliya institutlari, shuningdek xorijiy mamlakatlardan olingan kredit va qarzlar;

imzolangan bitimlar va shartnomalarga muvofiq tashkilotlardan, shu jumladan xorijiy tashkilotlardan jalb qilingan mablag‘lar;

korporativ obligatsiyalar, yevroobligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish natijasida jalb qilingan mablag‘lar;

qonun hujjatlari bilan ta’qiqlanmagan boshqa jalb qilingan mablag‘lar.

Amaldagi qonunchilikda zid bolmagan hollarda bankning taqsimlanmagan foydasi kreditlash resursi sifatida ishlatilishi mumkin.

IX. BANKNING BOSHQARUV ORGANLARI

9.1. Bankning Boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi;

Kuzatuv kengashi;

Bank Boshqaruvi (Ijroiya organi).

9.2. Bankning Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a’zoligiga bank tavakkalchiliklarini

samarali boshqarishni ta'minlash, benuqson ishbilarmonlik obrusiga ega, o‘z vakalotlari doirasida asosli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, tajriba va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar saylanadi. Ushbu lavozimga tayinlangan nomzodlar Markaziy bank bilan kelishib olinadi.

X. BANK AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG‘ILISHI

10.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi Bankning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

10.2. Bank aksiyadorlarining Yillik umumiy yig‘ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Yillik umumiy yig‘ilishlar oralig‘ida Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlari chaqirilishi va o‘tkazilishi mumkin.

10.3. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi va tartibi, yig‘ilish o‘tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro‘yxati Bank kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

10.4. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining mutlaq vakolatiga quyidagilar kiradi:

10.4.1. Bank ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki ustavni yangi tahririni tasdiqlash (bank ustav kapitalini ko‘paytirish bilan bog‘liq ustavga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bundan mustasno);

10.4.2. Bankni qayta tashkil etish;

10.4.3. Bankni tugatish, tugatuvchini (tugatuv komissiyasining) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

10.4.4. Bank Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a’zolarini saylash va a’zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, Kuzatuv kengashi a’zolariga mukofot va kompensatsiyalar to‘lash;

10.4.5. E’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;

10.4.6. Bankning ustav kapitalini kamaytirish;

10.4.7. Bank tomonidan o‘z aksiyalarini sotib olish;

10.4.8. Bankning tashkiliy tuzilmasini shuningdek unga o‘zgartirishlarni kuzatuv kengashidan ma’qullangandan so‘ng tasdiqlash (bank tashkiliy tuzilmalariga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bundan mustasno);

10.4.9. Bankning o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

10.4.10. Bankning foyda va zararlarini taqsimlash;

10.4.11. Bank Kuzatuv kengashining o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Bank kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;

10.4.12. Imtiyozli huquqni qo‘llamaslik to‘g‘risida (“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan) qarorni qabul qilish;

10.4.13. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash;

10.4.14. Bank aksiyalarini maydalash va yiriklashtirish;

10.4.15. Qonunchilikda nazarda tutilgan xollarda yirik bitimlar tuzish to‘g‘risida

qaror qabul qilish;

10.4.16. Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasi bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qarorni qabul qilish, ularning miqdori, tartibi va to‘lov shaklini belgilash;

10.4.17. Majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;

10.4.18. Qonunchilikda, mazkur ustavda va Bankning boshqa ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish.

10.4.19. Bankning Boshqaruviga to‘lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorini belgilash to‘g‘risidagi tartibini Kuzatuv kengashi tomonidan maqullangandan so‘ng tasdiqlash;

10.4.20. Bankning Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilish.

10.5. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida 21 (yigirma bir) kundan kechiktirmay, lekin uzog‘i bilan 30 (o‘ttiz) kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

10.6. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida qatnashish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili tomonidan amalga oshiriladi. Bank Boshqaruv raisi va Boshqaruv a’zolari aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida aksiyadorlarning vakillari sifatida ishtirok etishlari mumkin emas.

10.7. Ovozga qo‘yilgan masala bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori yig‘ilishda qatnashayotgan aksiyadorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

10.8. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovoz berish “Bankning bitta ovoz beruvchi aksiyasi – bitta ovoz” tamoyili asosida o‘tkaziladi, Bank Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash uchun kumulyativ ovoz berish hollari bundan mustasno.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida kun tartibi masalalari bo‘yicha ovoz berish byulletenlar orqali amalga oshiriladi.

10.9. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo‘yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o‘zgartishlar kiritishga haqli emas.

10.10. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi yopilganidan keyin 10 (o‘n) kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig‘ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig‘ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

10.11. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq barcha masalalar qonunchilik, mazkur ustav va Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

XI. BANK KUZATUV KENGASHI

11.1. Bankning kuzatuv kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir.

11.2. Bankning kuzatuv kengashi bankni samarali va oqilona boshqarishni, shu

jumladan bank boshqaruvi a’zolari o‘rtasida vakolatlarning hamda javobgarlikning taqsimlanishini, manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini va bartaraf etilishini ta’minlaydigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini belgilaydi hamda uning joriy etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi.

Bankning kuzatuv kengashi a’zolari bankning oqilona korporativ boshqaruviga ko‘maklashishi hamda o‘z vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog‘ida bankning, uning omonatchilari va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olishi, shuningdek Markaziy bank bilan samarali hamkorlikni ta’minlashi kerak.

11.3. Bank kuzatuv kengashi o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga, ushbu ustavga va aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan Bank Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiradi.

11.4. Bank Kuzatuv kengashi vakolatiga quyidagi masalalar kiradi:

11.4.1. Bank rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida jamiyat Bank boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

11.4.2. Bank Kuzatuv Kengashi qoshidagi qo‘mitalarni tuzish va ular to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

11.4.3. Bank aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

11.4.4. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibini tayorlash;

11.4.5. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

11.4.6. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

11.4.7. Korporativ boshqaruv xizmati faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

11.4.8. Bank mulkining bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

11.4.9. Bankning ijro organini (boshqaruvini) shakllantirish, bank boshqaruvi a’zolarini saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

11.4.10. Bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda Bankning kelgusi yil uchun biznes-rejasi Bank Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay ma’qullanishi lozim;

11.4.11. Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish, Bankning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash;

11.4.12. Bank boshqaruvi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Bank kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tegishli hujjatlarni Bank boshqaruvidan olish. Bank kuzatuv kengashi va uning a’zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

11.4.13. Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;

11.4.14. Dividend miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risida tavsiyalar berish;

11.4.15. Bankning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

11.4.16. Bank filiallari va vakolatxonalarini tashkil etish, ularni tugatish, filiallar va vakolatxonalar to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

11.4.17. Bankning sho’ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini tashkil etish;

11.4.18. Bankning affillangan shaxslari (bog‘liq shaxslar) bilan bitimlar tuzish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

11.4.19. Affillangan shahslar bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlar ro‘yhatini ma’qullash;

11.4.20. Bankning balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qarorlarini tasdiqlash (ushbu masala bank kuzatuv kengashining a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, bunda kuzatuv kengashidan chiqib ketgan a’zolarning ovozi inobatga olinmaydi).

Agarda Bank Kuzatuv Kengashi yirik bitim tuzish masalasida yakdillika erishmagan taqdirda, yirik bitim tuzish masalasi Bank Kuzatuv Kengashining qarori bilan yirik bitim tuzish masalasi bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilish uchun Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi kun tartibiga kiritilishi mumkin;

11.4.21. Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog‘liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

11.4.22. Bank tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish, shuningdek ularni sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish, hosilaviy qimmatli qog‘ozlar, depozit sertifikatlari va boshqa qarz majburiyatlarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

11.4.23. Bankning ustav kapitalini ko‘paytirish, shuningdek Bank ustaviga jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish hamda Bankning e’lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

11.4.24. qonun hujjatlariga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog‘ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

11.4.25. Bankning boshqaruviga to‘lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash hamda Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, shuningdek ularga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha masalalarni maqullash va aksiyadorlar tasdig‘iga kiritish;

11.4.26. Bankda korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun mustaqil tashkilotni tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilish;

11.4.27. Bank aksiyalarini va emissiya risolasini chiqarish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlash, hamda avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish;

11.4.28. Strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to‘g‘risida xabardor etish, (jumladan sezilarli tavakkalchiklarning har birini aniqlash uslubiyotini o‘z ichiga qamrab oluvchi tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatlari, risk-appetit bayonoti, stress-test o‘tkazish tartibi va boshqalar), kapitalni boshqarish siyosatini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

11.4.29. Aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo‘yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta’minlash;

11.4.30. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish tartibini tasdiqlash;

11.4.31. Bankning moliyaviy holatni tiklash rejalarini tasdiqlash;

11.4.32. Bank boshqaruvi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

11.4.33. Bankning qabul qilingan biznes-rejasi bajarilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek har chorakda bankning faoliyati natijalari (shu jumladan sezilarli tavakkalchiliklarni boshqarish holati to‘g‘risidagi hisoboti) to‘g‘risida bank boshqaruvining hisobotini eshitish;

11.4.34. Bankning ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish, shuningdek bank ichki audit xizmatining choraklik hisobotlari asosida bank boshqaruvi tomonidan bank strategiyalari va siyosatlariga rioya etilishini baholashdan o‘tkazish;

11.4.35. Bank boshqaruvi a’zolari tomonidan taqdim etilgan axborotni, takliflarni va tushuntirishlarni o‘rganish, muhokama qilish hamda ular bo‘yicha bahslashish;

11.4.36. Bank faoliyatini boshqarish tizimi samaradorligini, shu jumladan bank boshqaruvi prinsiplari monitoringini va ularni davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko‘rish;

11.4.37. Bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to‘g‘risida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga hisobot taqdim etish;

11.4.38. Yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta’minlash;

11.4.39. Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta’minlash;

11.4.40. Hududiy bosh boshqarmalar, filiallarni tashkil etish, ularni tugatish hamda ular to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

11.4.41. Qonun hujjatlariga, ushbu ustavga va Bankning ichki normativ hujjatlariga muvofiq Bank Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiradigan masalalarni hal qilish uchun Bankning Boshqaruviga o‘tkazilishi mumkin emas.

11.5. Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq nizolarning kelib chiqishini oldini olish va ularni hal qilish maqsadida, Bankning boshqaruv organlari, Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangan, manfaatlar to‘qnashuvi holatlarida xatti-harakatlar tartibi to‘g‘risidagi nizomga amal qiladi.

11.6. Bank Kuzatuv kengashining tarkibi 7 (etti) kishidan, shu jumladan Kuzatuv kengashiga rahbarlik qiladigan Bank Kuzatuv kengashi Raisidan iborat. Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolari soni 2 (ikki) kishidan kam bo‘lmasligi lozim. Bank Kuzatuv kengashi a’zolari aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga kumulyativ ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Bank Kuzatuv kengashiga saylangan shaxslar muddatsiz qayta saylanishlari mumkin.

11.7. Bank Kuzatuv kengashi a’zolarining ko‘pchiligi Bankka aloqador shaxslar bo‘lmasligi kerak, bundan ularning kuzatuv kengashidagi a’zoligi mustasno. Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar Bankning Kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lishi mumkin emas.

11.8. Bank Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan, ushbu Kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan saylanadi. Bankning Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

11.9. Bank Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi ishini tashkil etadi,

Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida raislik qiladi.

Bank Kuzatuv kengashining raisi bo‘lmagan taqdirda uning vazifasini Bank Kuzatuv kengashining a’zolaridan biri amalga oshiradi.

11.10. Bank Kuzatuv kengashining majlisi Bank Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o‘z tashabbusiga ko‘ra, Bank Kuzatuv kengashi, Bank Boshqaruv a’zosining, shuningdek aksiyador talabiga ko‘ra chaqiriladi.

Agar Bank Kuzatuv kengashining saylangan a’zolari sonining kamida 75 (etmish besh) foizi ishtirok etsa, Bank Kuzatuv kengashining yig‘ilishi vakolati hisoblanadi (kvorumga ega). Bank Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar hozir bo‘lganlarning ko‘pchiligi tomonidan qabul qilinadi.

Bankning ustav kapitalini ko‘paytirish va ustavga tegishli o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qaror Bank Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Bank Kuzatuv kengashi yig‘ilishida masalalarni hal qilishda Kuzatuv kengashining har bir a’zosi bitta ovozga ega. Bank Kuzatuv kengashining bitta azosining ovozini Bank Kuzatuv kengashining boshqa a’zosiga o‘tkazishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bank Kuzatuv kengashi a’zolari o‘z mulohazalarining mustaqilligi bo‘yicha talablarga rioya etishi kerak.

Agar Bank Kuzatuv kengashi a’zolarining ovozlari teng bo‘lsa, Bank Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

11.11. Bank Kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan) Bank Kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

11.12. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Bank Kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to‘g‘ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo‘ladi.

11.13. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishining qarori bilan Bank Kuzatuv kengashi a’zolari o‘z vazifalarini bajarayotgan davrda ish haqi, shuningdek o‘z vazifalarini bajarish bilan bog‘liq harajatlarni qoplash huquqiga ega. Bunday mukofot va kompensatsiya miqdori aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori bilan belgilanadi.

XII. BANK BOSHQARUVI (IJROIYA ORGANI)

12.1. Bank boshqaruvi bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo‘lib, u bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq Bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi.

12.2. Bank boshqaruvi 11 (o‘n bir) a’zodan iborat bo‘lib, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi hamda Bank Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatlariga kiradigan masalalardan tashqari, barcha masalalarni yechish vakolatiga ega.

12.3. Bank Boshqaruvi tarkibiga Bank Boshqaruvi raisi va uning o‘rinbosarlari bilan birgalikda Bank Kuzatuv kengashining qaroriga binoan Bankning asosiy tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari kiradi.

12.4. Bank Boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Bank Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil qiladi. Bank Boshqaruvi bank Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishiga va Kuzatuv kengashiga hisobdordir. Bank Boshqaruvi qonun hujjatlari, mazkur ustav va aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan Bank

Boshqaruvi to‘g‘risidagi Nizom asosida faoliyat yuritadi.

12.5. Bank Boshqaruvining raisi va uning o‘rinbosarlari qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Bank Boshqaruvining qolgan a’zolarini saylash (tayinlash) va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan amalga oshiriladi.

Bank Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasi bank nomidan Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan imzolanadi. Boshqaruv a’zolari bilan mehnat shartnomalari Bank Boshqaruvi raisi tomonidan imzolanadi.

12.6. Bank Boshqaruvining majlislari zaruratga qarab o‘tkaziladi.

12.7. Bank Boshqaruvi, agar uning majlisida 75 foizdan ko‘proq a’zolari qatnashayotgan bo‘lsa, kun tartibidagi masalalarni to‘liq hal qilishga haqlidir.

12.8. Bank Boshqaruvi yig‘ilishida qarorlar majlisda qatnashgan Boshqaruv a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Yig‘ilishda masalalarni hal qilishda Bank Boshqaruvining har bir a’zosi bitta ovozga ega. Ovozlar teng bo‘lganda, Bank Boshqaruvi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Ushbu ustavning 12.11.10. - bandida ko‘rsatilgan masala bo‘yicha qaror Boshqaruvning barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

12.9. Bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qaror bilan rozi bo‘lmagan Boshqaruv a’zolari o‘zlarining alohida fikrlarini Bank Kuzatuv kengashiga bildirishlari mumkin.

12.10. Bank Boshqaruvi yig‘ilishlari Boshqaruv raisi tomonidan tashkil etiladi. Boshqaruv yig‘ilishida majlis bayoni yuritiladi, unga yig‘ilishda qatnashgan Bank Boshqaruvi a’zolari imzo qo‘yadi. Bank Boshqaruvi majlisining bayonnomalari Bank Kuzatuv kengashiga ularning talabiga binoan taqdim etiladi.

12.11. Bank Boshqaruvining vakolatlari (vazifalari):

12.11.1. Strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to‘g‘risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish kapitalni siyosatini amalga oshirish;

12.11.2. Bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni bank xodimlari o‘rtasida o‘z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta’minlashi;

12.11.3. Bank xizmatlari markazlari, bank xizmatlari ofislari, minibank, chakana xizmatlar markazlari va boshqa bo‘linmalarini tashkil etish, ularni tugatish hamda ular to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

12.11.4. Bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

12.11.5. Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek bank Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishiga va Kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, bankka nisbatan qo‘llanilgan choralar hamda sanksiyalar to‘g‘risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etishi;

12.11.6. Bankning tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni, xodimlarning lavozimi yo‘riqnomalarini tasdiqlash;

12.11.7. Bankning ichki normativ hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki Bank Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan masalalar bundan mustasno;

12.11.8. Bankning sho’ba korxonalarini, vakolatxonalari va tarmoqlari uchun

majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qilish;

12.11.9. Bankning rivojlanish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqish, ularning bajarilishini tashkil etish va monitoringini amalga oshirish;

12.11.10. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida yoki Bank Kuzatuv kengashida ko‘rib chiqishga mo‘ljallangan masalalarni mazkur ustavga muvofiq oldindan ko‘rib chiqish, tegishli materiallar, takliflar va ular bo‘yicha qaror loyihalarini tayyorlash;

12.11.11. Bankning balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilish, agar bitim tuzish masalasida yakdillikka erishish mumkin bo‘lmasa, Bank Boshqaruvi qarori bilan bitim tuzish masalasi hal qilinishi uchun Bank Kuzatuv kengashiga yuborilishi mumkin;

12.11.12. O‘z vakolati doirasidagi ishlarning holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan muddatlarda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi va Bank Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

12.11.13. O‘z vakolatlari doirasida Bankning samarali va barqaror ishlashini hamda tavakkalchiliklarni boshqarish bo‘yicha qonun hujjatlari, bank siyosati va qoidalarini bajarilishini ta’minlash;

12.11.14. Samaradorlik ko‘rsatkichi (KPI) asosida xodimlarga ish haqini to‘lash shakllari va rag‘batlantirish tizimini belgilash;

12.11.15. Bank aksiyadorlari, Kuzatuv Kengashi va audit tashkilotlarining birinchi talabiga binoan bank faoliyatiga ta’luqli moliyaviy hisobotlar va boshqa ma’lumotlarni taqdim etish;

12.11.16. Bank Ichki audit departamenti va tashqi auditorlar tomonidan bank faoliyati bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni ko‘rib chiqish va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

12.11.17. Mazkur ustavda hamda banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

12.12. Bank Boshqaruvi raisining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

12.12.1. Bank faoliyatiga oid masalalarni hal etish, Bank ustaviga muvofiq umumiy yig‘ilish, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv vakolatiga kirgan masalalar bundan mustasno;

12.12.2. Ishonchnomasiz, Bank nomidan ish yuritadi, respublikaning barcha idoralari va tashkilotlarida, shuningdek boshqa davlatlarda Bankning barcha masalalari bo‘yicha Bank nomidan ish yuritadi;

12.12.3. Shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalarini tuzadi;

12.12.4. Mazkur ustavga muvofiq Bank mol-mulkini boshqaradi, ishonchnomalar beradi;

12.12.5. Bank, uning filiallari, hududiy bosh boshqarmalar, bank xizmatlari markazlari, bank xizmatlari ofislari, minibank, chakana xizmatlar markazlari, boshqa bo‘linmalari va vakolatxonalarining shtatlar tarkibini hamda unga o‘zgartirishlarni tasdiqlaydi.

12.12.6. Bank filiallari, hududiy bosh boshqarmalar, bank xizmatlari markazlari va vakolatxonalar boshlig‘ini tayinlaydi;

12.12.7. Bankning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va buyruq beradi;

12.12.8. Qonun hujjatlariga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq Bank faoliyati

bilan bog‘liq boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi va hal qiladi.

12.13. Bank huquqlarini amalga oshirish va o‘z majburiyatlarini bajarishda Bank Boshqaruv raisi va Boshqaruv a’zolari Bank manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar va belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

XIII. BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY HISOBOT. BANKNING MOLIYA VA IQTISODIY FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

13.1. Bank qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish, shuningdek hujjatlar aylanishini va hujjatlar saqlanishini tashkil qilishi shart.

13.2. Bankning moliyaviy hisobotida aks ettirilgan va aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga taqdim etiladigan ma’lumotlar, buxgalteriya balansi, foyda va zarar hisobraqamlaridagi ma’lumotlarning haqqoniyligi, bank yoki uning aksiyadorlari bilan mulkiy manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan tashqi mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlanishi kerak.

13.3. Bankning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazish sanasidan 10 (o‘n) kun oldin Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi shart.

13.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi sanasidan kamida ikki hafta oldin, Bank Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi audit o‘tkazilgandan so‘ng, Halqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tayyorlangan yillik moliyaviy hisobotlarini e’lon qiladi (chop etadi).

13.5. Bankning moliyaviy yili 1-yanvardan boshlanadi va 31-dekabrda tugaydi. Ushbu sanalar bayram va dam olish hamda ishlanmaydigan kunlarga to‘g‘ri kelganda bir necha kunga ko‘chirilishi mumkin.

13.6. Bankning Ichki audit xizmati (Departamenti).

Bankning Ichki audit xizmati Bankning Kuzatuv kengashiga hisobot beradi va Bankning ijro organi, filiallari va vakolatxonalari ishini qonun hujjatlari, Bank ustavi va boshqa hujjatlarga muvofiqligini tekshirish va monitoring qilish orqali amalga oshiradi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlardagi ma’lumotlarni to‘liqligi va haqqoniyligi, xo‘jalik operatsiyalarini amaldagi qonunchilik doirasida o‘tkazilishi va aktivlarni butligini, shuningdek jamiyat tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilinishi ta’minlaydi.

Bankning Ichki audit xizmati, shuningdek, bank tomonidan ustav kapitalidagi 50 (ellik) foizidan yuqori ulush egalik qilinayotgan yuridik shaxslar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni ham nazorat qiladi.

Ichki audit xizmati o‘z faoliyatini qonun hujjatlari va bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiradi.

13.7. Auditorlik tashkiloti

Bank faoliyati har yili auditorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga va Markaziy bank tomonidan tijorat banklarida audit o‘tkazish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo‘lgan tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan tekshirilishi lozim.

Auditorlik tashkiloti bankning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshiradi va u bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonunda belgilangan tartibda auditorlik xulosasini taqdim etadi.

XIV. BANK FILIALLARI, VAKOLATXONALARI VA BOSHQA ALOHIDA BO‘LINMALARI, ULARNI TASHKIL ETISH TARTIBI

14.1. Bank Markaziy bankning ruxsati bilan O‘zbekiston Respublikasida bank filiallar tashkil etishi, vakolatxonalar va boshqa alohida bo‘linmalar ochishi mumkin.

14.2. Bank filiallari bankning yuridik shaxs bo‘lmagan, Bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi va bank tomonidan o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi alohida bo‘linmasidir.

14.3. Bankning filiallari Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan tashkil etiladi va yopiladi. Bank filiallari o‘z faoliyatini Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiradi.

14.4. Filial rahbari va bosh hisobchisi qonunchilikda belgilangan tartibda Bank Boshqaruv Raisi tomonidan tayinlanadi. Filial rahbarlari Bank Boshqaruv Raisi yoki uning vazifalarini bajaruvchi shaxs tomonidan berilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

Bank filiali to‘liq firma nomi yozilgan va o‘zining emblema (logotipi) tasvirlangan yumaloq muhr va vizual identifikatsiya vositalari, burchak shtampi va firma blanklariga egadir.

14.5. Bank vakolatxonasi Bank joylashgan hududdan tashqarida joylashgan, uning manfaatlarini ifoda etuvchi va himoya qilinishini ta’minlaydigan alohida bo‘linmasi hisoblanadi. Bank vakolatxonasi bank operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas. Bank vakolatxonasi qonunchilikka muvofiq ochiladi va tugatiladi. Bank vakolatxonasining ochish, tugatish, shuningdek uning tartibini tasdiqlash Bank Kuzatuv kengashining qarori asosida amalga oshiriladi.

14.6. Bank, banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibga asosan chet elda sho’ba banklar hamda filiallar va (yoki) vakolatxonalar ochishi, banklar kapitalida ishtirok etishi, shu jumladan xorijiy banklarni tashkil etishga haqlidir.

14.7. Bank mijozlarga tezkor xizmat ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida hududiy bosh boshqarmalar, bank xizmatlari markazlari, bank xizmatlari ofislari, minibanklar, chakana xizmatlar markazlari va aloxida bo‘linmalar Bank Boshqaruvi qaroriga asosan tashkil qilishga va ular faoliyatini tugatishga haqli. Mazkur bo‘linmalar Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida ish faoliyatini olib boradi.

14.8. Bank xizmatlari markazlari, bank xizmatlari ofislari, minibanklar, chakana xizmatlar markazlari bank yoki bank filiali binosidan tashqarisida joylashgan bankning tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi va bank yoki uning filiali bilan yagona bo‘lgan bank (filial) balansi va kodiga ega bo‘ladi.

14.9. Bank xizmatlari markazlari, bank xizmatlari ofislari, minibanklar, chakana xizmatlar markazlarida qoida tariqasida bank litsenziyasi doirasida ular to‘g‘risidagi nizomda ko‘rsatilgan operatsiyalarni bajaradi.

14.10. Bank xizmatlari markazlari pul ombori bilan, bank xizmatlari ofislari, minibanklar, chakana xizmatlar markazlari pul omborisiz tashkil etiladi.

XV. BANKNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

15.1. Bankni qayta tashkil etish raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining talablari hisobga olingan holda, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida Markaziy bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bankni qayta tashkil etish Markaziy bankning

talabiga binoan ham amalga oshirilishi mumkin.

15.2. Faoliyatni to‘xtatish va tugatish uchun quyidagilar asos hisoblanadi: Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qarori;

Markaziy bank Boshqaruvining bankni majburiy tugatish to‘g‘risidagi qarori;

15.3. Bankni tugatish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Tugatish komissiyasining tayinlash to‘g‘risidagi qaror Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan Markaziy bank bank bilan dastlabki kelishilgan holda qabul qilinadi. Tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan boshlab bankni boshqarish bo‘yicha barcha vakolatlar unga o‘tadi.

15.4. Bankni qayta tashkil etish yoki tugatish to‘g‘risidagi xabar belgilangan tartibda matbuotda e’lon qilinadi.

15.5. Bank O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklar reyestridan chiqarilgan paytdan e’tiboran tugatilgan deb hisoblanadi.

XVI. USTAVGA KIRITILGAN O‘ZGARTIRISHLAR VA QO‘SHIMCHALARNI DAVLAT RO‘YXATIDAN O‘TKAZISH

16.1. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori va Kuzatuv kengashining vakolatlari doirasida Bank Ustaviga kiritilgan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar Markaziy bank tomonidan ro‘yxatga olinadi.

16.2. Mazkur ustavga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar yoki ustavning yangi tahriri davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi.

16.3. Mazkur ustavning ayrim qoidalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid kelgan hollarda, ustavga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgunga qadar ular o‘z kuchini yo‘qotadi. Ushbu qoidalar bilan tartibga solinadigan masalalar qonunchilikda o‘rnatilgan tartibga asosan amalga oshiriladi.bosh

16.4. Mazkur ustav tasdiqlangandan so‘ng, shu kunga qadar amalda bo‘lgan ustav va unga kiritilgan barcha o‘zgartirishlar o‘z kuchini yo‘qotadi.

Tikilgan va raqamlangan

31 (Ottiz bir)

varaqdan ibort

2024-yil 9- aprel

Imzo